

## HTM2CHM DASTURI YORDAMIDA ELEKTROSTATIKA BO'LIMIDAN ELEKTRON DARSLIK TAYYORLASH

S. Davletniyazov<sup>1</sup> S. Jumamuradova<sup>2</sup> D. O'rinboyeva<sup>3</sup>

Ajiniyoz nomidagi NDPI

<sup>1</sup> Fizika o'qitish metodikasi kafedrasida assistenti

<sup>2</sup> Fizika va astronomiya ta'lim yo'nalishining 2-kurs talabasi

<sup>3</sup> Fizika va astronomiya ta'lim yo'nalishining 2-kurs talabasi

**Annotatsiya** Maqolada umumiy fizikaning elektrostatika bo'limi bo'yicha yangi interfaol elektron darslik taqdim etilgan. Elektron darslik «Fizika astronomiya» yo'nalishi talabalari «Umumiy fizika» fanining Elektrostatika bo'limi bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlash uchun qo'shimcha manba sifatida foydalanishlari mumkin.


**Kalit so'zlar:** Axborot-kommunikatsion texnologiyalar, Htm2chm dasturi, multimedia texnologiyalari, Elektrostatika.

Zamonaviy ta'lim tizimining asosini sifatli va yuqori texnologiyali muhit tashkil etadi. Uning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan murakkab, shu bilan bir qatorda bunday muhit ta'lim tizimini takomillashtirishga, ta'lim jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida elektron o'quv kurslardan foydalanish mashg'ulotlarni interfaol rejimda olib borishga imkon beradi. Ta'lim tizimida elektron o'quv kurslarini joriy qilish, fanga kiritilayotgan yangi ma'lumotlarni tezkorlik bilan o'quv jarayoniga kiritish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Bundan tashqari o'quv jarayonida elektron resurslardan foydalanish, bilim oluvchi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Jumladan, olinayotgan bilimlar yaxlitligini, tezkorligini ta'minlaydi. Shuningdek, o'rganilayotgan mavzu doirasidagi qo'shimcha ma'lumotlarni tezkorlik bilan olish imkoniyatlari yaratiladi. Demak, ta'lim jarayonlarida elektron o'quv kurslarini qo'llash va ulardan samarali foydalanish uslublarini tadqiq etish, elektron o'quv resurslarini yaratish, dolzarb ilmiy-texnik masalalar turkumiga kiradi [1].



Hozirgi kunda elektron darsliklarni bir necha xil tayyorlash usullari mavjud. Ko'pchilik holatlarda tayyorlanayotgan elektron darslik ma'lumotlari dastlab HTML sahifalari ko'rinishiga o'tkaziladi. HTML tili imkoniyatlaridan foydalanib ham elektron darslik tayyorlash mumkin. Bu sohaning hozirda imkoniyatlari kengaygan. HTML sahifalari tayyorlovchi va ularga bezak berish imkonini beruvchi maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Bunday dasturlarga misol sifatida Microsoft FrontPage, Dreamweaver dasturlarini keltirish mumkin. Bu dasturiy vositalar yordamida osonlik bilan elektron darsliklar tayyorlash va tahrirlash imkoniyatlari mavjud. Lekin bularda ma'lumotlar .html yoki .htm kengaytmali ko'rinishda saqlanadi va elektron darslik tarkibidagi ma'lumotlar ko'p bo'ladigan bo'lsa uni ma'lumot tashuvchi kompyuter qurilma (fleshka) larga ko'chirish yoki ko'chirib olish ko'p vaqt talab etadi. Bu esa doim ham hushlanavermaydi. Anashu holatlardan qochish uchun maxsus dasturiy vositalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular yordamida mavjud HTML tilida tayyorlangan electron darsliklarni osonlik bilan **exe** yoki **chm** kengaytmali fayllar holatiga keltirish mumkin. Bunday elektron darsliklar foydalanishga qulayligi va yuqoridagi kamchiliklardan holiligi bilan oddiy HTML ma'lumotlar to'plamidan iborat bo'lgan elektron darsliklardan afzal hisoblanadi. Bu elektron darslikning afzalligi uning hajmini oddiy HTML hujjatlari papkasidan iborat elektron darslik hajmidan kichikligidir. Bunday elektron darsliklarni ko'chirish yoki ko'chirib olish oson va qisqa vaqt talab etadi. Butun bir-biriga bog'langan HTML ma'lumotlar bitta **exe** yoki **chm** fayli holatiga keltiriladi. Bunday elektron darslik tayyorlovchi dasturlar orasida **htm2chm** dasturi o'ziga xos mavqega ega.

Ushbu ishda **htm2chm** dasturida yaratilgan Umumiy fizikaning Elektrostatika bo'limi bo'yicha tayyorlangan elektron darslik [1], belgilangan kursning 5 qismini (boblarini) o'z ichiga oladi. 1-2 rasmda elektron darslikning bosh oynasi va mazmuni ko'rsatilgan.



1- rasmda elektron darslikning bosh oynasi




2- rasm elektron darslikning mazmuni

Elektron darslikning har bir bobni slayd bilan boshlanadi. Mazmuni bobning sarlavhasini o'z ichiga oladi va bu bobda muhokama qilinadigan narsalarni aniq

ko'rsatadigan. Bo'lim muqovasidagi "elektr maydoni" tugmachasini bosish orqali biz bob mazmuni sahifasiga o'tamiz (3-4-rasm).



3-rasm Kursning mavzu slaydlari.



4-rasm Kursning mavzu slaydlari.

Ishlab chiqilgan elektron darslik materialni chuqurroq o'rganishga, yoki o'zlashtirilmagan mavzular bilan batafsilroq tanishishga imkon beradi. Turli xil

